




# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИМА АЁЛЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

халқаро илмий-амалий конференцияси  
МАТЕРИАЛЛАР ТўПЛАМИ





10.	Муҳидова Г.Ю. BOLALARDA TAFAKKURNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	196
11.	Ахматова Д. Д, Бектемирова З.О. <i>Илмий раҳбар</i> : доцент Нишантаев М.К ГЕЛМИНТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШДА СУПРАМОЛЕКУЛЯР БИРИКМАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	200
12.	Пардаева З., Жумабоева Р. Ражабова И.Х Умарова С.М. ATROF – OLAM BILAN TANISHTIRISH MASHG’ULOTLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OILAGA NISBATAN MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH.....	203
13.	Раҳимова С МАКТАБГACHA TA’LIM TASHKILOTIDA RIVOJLANISH MARKAZLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO’YICHA METODIK TAVSIYALAR.....	205
14.	Раҳмонова Г.Ш О’ЗБЕКISTONDA XOTIN-QIZLARNI HAR TOMONLAMA QO’LLAB-QUVVATLASH VA ULARNING JAMIYATDAGI FAOL ISHTIROKI.....	208
15.	Раҳмонова Г. Ш. Идиева М. AYOLNING OILADA VA JAMIYATDAGI O’RNI.....	210
16.	Шарипова М.Б . Рамазонова Ф.У AYOLLARNING OILA VA JAMIYATDAGI MAVQEYINI YUKSALTIRISH HAMDA MA’NAVIY-RUHIY DUNIYOSINI BOYITISHDA QANRAMONLIK EPOSINING O’RNI.....	212
17.	Шомуродова С. Болтаева Н. МАКТАБГACHA TA’LIM TASHKILOTIDA RIVOJLANISH MARKAZLARIDA TA’LIM TARBIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.....	215
18.	19 Хақимова М. Файзиёвн У. Мусаханова Г.М. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ОИЛАДАГИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯНИ МУСТАХҚАМЛАШ ВА УНДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ.....	218
19.	Мусаханова Г. М, Қобилжонова М. О. ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКISTONDA ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТДАГИ РОЛИ.....	220
20.	Яхшиева М.Т. ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТУРЛИ ТАРМОҚЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АЁЛЛАРНИНГ РОЛИ.....	223

#### **V-ШЎЪБА. ЎЗБЕКISTON ҚОНУНЧИЛИГИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ ВА ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУҚЛАРИ КАФОЛАТЛАРИ**

1.	Анорбоева С.А. JAMIYATIMIZDAGI GENDER TENGLIK: AYOLLAR HUQUQ VA ERKINLIK LARI.....	227
2.	Раҳмонбердиева Н. Б, ЎЗБЕКISTON ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ ТАРИХИДА ТАМАРАХОНИМ ВА УНИНГ УЙ-МУЗЕЙИ АҲАМИЯТИ.....	230
3.	Ибрагимова Г. KX DIRECTIONS FOR FORMING THE CULTURE OF COMMUNICATION IN IMPROVING THE QUALITIES OF PROFESSIONAL COMPETENCE.....	234
4.	Қўйлиев Т, Раҳмонбердиева Н, ЯНГИ ЖАМИЯТДА БАХТ ТОПГАН АЁЛ.....	238
5.	Элмуратова Ш. РОЛЬ ТАМАРАХАНИМ И ЕЕ ДОМА-МУЗЕЯ В ИСТОРИИ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКISTANE.....	241
6.	Элмуратова Шохиста Аблакуловна, ROLE OF TAMARAKHANIM AND ITS HOUSE-MUSEUM IN THE HISTORY OF GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN.....	245
7.	Акбарова С. Ш, Азизова М ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИ - ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУҚЛАРИ КАФОЛАТИДИР.....	248
8.	Файзуллаева Н. ЎЗБЕКISTON ҚОНУНЧИЛИГИДА АЁЛЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ.....	252
9.	Абдурахмонов Х.И. Дадакулов Э. Т. ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИНГ ИЖТИМОИЙ АҲАМИЯТИ.....	254
10.	Очилов Н.Ў. Очилова М.Ў. Тўлкинова А.М. GENDER TENGLIGI: AYOLLARNING HUQUQ VA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	258



kafolatlarini ta'minlashning asosiy printsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir. Bir so'z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e'tiborning ifodasi bo'lgan bunday sharoitlar va imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo'lmagan.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Albatta, jamiyatda namunali oilalar talaygina. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma'naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurlu, piru badavlat otaxon va onaxonalar ko'z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsus, bizni o'ylantirgan masala bu – oila qo'rg'onining buzilishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir. Tashqi omil sifatida g'arbona yashash tarzining o'zlashtirilishi bo'lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma'naviy jihatdan etarli tayyorgarlikka ega bo'lmaslik masalasidir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Рахмонова Г. Ш. и др. АХЛОҚ–ШАХС ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЮҚОРИ МАЪНАВИЙ ПЙДЕВОРИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 160-165.
2. Рахмонова Г. Ш. и др. ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ КАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 108-113.
3. Rakhmonova G. S. The Content of the Development of Spiritual and Moral Competencies of Students //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-183.
4. Рахмонова Г. Ш., Жалилов З. Б. РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ //Academy. – 2020. – №. 12 (63). – С. 62-64.
5. Рахмонова Г. Ш. СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ //Проблемы педагогики. – 2022. – №. 1 (59). – С. 14-16.

**Sharipova Maxbuba Baxshilloeyvna,**  
Buxoro davlat universiteti,  
Maktabgacha ta'lim kafedrasini o'qituvchisi  
**Ramazonova Feruza Umedovna**  
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi  
maxima.84@mail.ru  
maxbuba013@gmail.com

#### **AYOLLARNING OILA VA JAMIYATDAGI MAVQEYINI YUKSALTIRISH HAMDA MA'NAVIY-RUHIY DUNIYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O'RNI**

#### **ANNOTATSIYA**

Maqolada ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish, ularning ma'naviy-ruhiy duniyosini boyitishda qahramonlik eposining o'rni, milliy epik dostonlarimizni o'rgatish orqali yosh avlodning ruhiy va ma'naviy duniyosini boyitish masalasi bayon etilgan.



**Kalit soʻzlar:** xalq ogʻzaki ijodi, folklor, maʼnaviy, tarbiyashunos, hikmat, donolik, aql-zakovat, oqilona, yozma adabiyot, maqol, naql, otalar soʻzi, donolar soʻzi.

## РОЛЬ ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА В ПОВЫШЕНИИ ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИН В СЕМЬЕ И ОБЩЕСТВЕ И ОБОГАЩЕНИИ ИХ ДУХОВНОГО МИРА

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается вопрос повышения положения женщин в семье и обществе, роль героического эпоса в обогащении их духовно-духовного мира, обогащении духовно-духовного мира молодого поколения путем обучения нашим национальным эпосам.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, фольклор, духовный, воспитатель, мудрость, ум, сообразительность, разумный, литература, пословица, афоризм, слово отцов, слово мудрецов.

## THE ROLE OF THE HEROIC EPIC IN IMPROVING THE STATUS OF WOMEN IN THE FAMILY AND SOCIETY AND ENRICHING THEIR SPIRITUAL WORLD

### ANNOTATION

The article describes the issue of raising the position of women in the family and society, the role of the heroic epic in enriching their spiritual and spiritual world, and enriching the spiritual and spiritual world of the young generation by teaching our national epics.

**Key words:** folklore, folklore, wise, spiritual, tutor, orally, wisdom, mind, ingenuity, reasonably, literature, proverb, aphorism, words of fathers, words of wise men.

Maʼlumki, gender – xotin-qizlar va erkaklar oʻrtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, taʼlim hamda ilm-fan sohalarida namoyon boʻladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi.

Xalq ogʻzaki ijodi namunalari maʼnaviy qadriyatlar tizimining asoslaridan boʻlib, xalqimizning uzoq asrlik oʻtmish tarixi, yashash tarzi, urf-odatlar, axloqiy qarashlari, tafakkuri, olamni badiiy-estetik idrok etishning oʻziga xos shakli sifatida beqiyos qadr-qimmatga ega. Folklor asarlari magʻzidagi hikmat har bir davrda yangidan anglanadi, zamon talablariga mos talqin topadi, xalqning maʼnan boyishiga xizmat qiladi. Xalqimizning mustaqillika erishgani va jahon hamjamiyatida munosib oʻrnini egalashi tarixiy voqeya sifatida folklorshunoslik sohasining ham yangi bosqichga chiqishiga imkon yaratdi. Milliy epik dostonlarimiz asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va maʼnaviy quvvat berib kelayotir. Shuning uchun ular maʼnaviy qadriyatlarimizning alohida tarkibiy qismi sanalanadi. Xalq dostonlari nafaqat ogʻzaki ijod bilan bogʻliq badiiy anʼanalarimizni, balki milliy maishiy anʼanalarimizni, betakror va goʻzal urf-odatlarimizni avloddan-avlodga yetkazishda alohida eʼtiborga loyiqdir. Shu sabab ularni oʻrganish milliy anʼanalarimiz tarixini, olis madaniyatimiz kuch-qudratini chuqur idrok etishga katta yordam beradi. Eng muhimi, xalq dostonlari milliy anʼanalarimizni yoshlar ongiga chuqur singdirish, har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim rol oʻynaydi. «Alpomish» dunyo estetik tafakkuri tarixida kamdan-kam uchraydigan favqulodda va noyob badiiy hodisalardan biridir. Uning favqulodda va noyobligi shundaki, qadimiyatda yaratilgan bu ulkan epos baxshilar tomonidan asrlar davomida kuylanib, jonli epik anʼanalarda ogʻzaki ravishda bizgacha yetib keldi. Shuning uchun ham u bugungi kunda qadimiyatning buyuk bir ehsoni, oʻzi yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli anʼanaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ommasi ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, koʻplab variantlarda va xilma xil koʻrinishlarda ajdodlardan avlodlarga yetib kelgan adabiy yodgorlik, xalq milliy tarixidagi qahramonlik voqealarining afsonalar qobigʻiga oʻralgan oʻziga xos badiiy ifodasi, buyuk epos sifatida baholanadi. «Alpomish» dostoni bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qadim dostonchilik anʼanalari asosida xalq ogʻzaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan boʻlsada, aslida "Alpomish" dostonining eng qadim qatlamlari miloddan avvalgi yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini oʻzida aks





ettirgan. Qo'ng'iroq qabilasining turli hududlarga siljishi va ularning yangidan shakllanayotgan xalqlar tarkibiga kira borishi natijasida doston boshqa urug' va elatlarga ham o'tib, ularning epik an'analari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida otabobolari ishtirok etgan har bir xalqning o'z eposiga aylandi.

Xalqimiz qadim-qadimdan ayolga hurmat-izzat, e'tibor bilan munosabatda bo'lgan. Badiiy adabiyotda keltiriladigan o'xshatishlar-u, qiyoslashlarni bunga misol qilsak bo'ladi. Ayniqsa, oilada yor, ona sifatidagi oliy burchi – farzand tarbiyasi, uning jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. "Alpomish" dostonidagi Barchinoy obrazi orqali ushbu tasavvurlar yaxshi ochib berilgan. Barchin o'zbek eposida alp ayol obrazi sifatida gavalantirilgan. BARCHIN (Barchinoy, oy Barchin, gul Barchin, Barchin suluv) — "Alpomish" dostonidagi yetakchi obrazlardan. Boysarining qizi. Alpomishning sevgilisi. Barchin mard va dovyurak qiz. U xalq og'zaki ijodidagi qahramonlik eposiga xos Botir (Alp) qiz haqidagi an'anaviy obraz hisoblanadi. Turkiy xalqlar Barchin obrazi orqali xotin-qizlarga o'z samimiy munosabatlari, katta e'zoz va hurmatlarini bildirganlar, asllar ham yuksak insoniy qudrat va shon-sharafga ega ekanligini kuylaganlar. Ba'zi tarixiy rivoyatlarda Barchin o'g'uz qabilalariga beklilik qilgan ayol, deb ta'riflanadi (uning maqbarasi Sig'noqaj 5 kilometr Janubi-Sharqda joylashgan). Barchindan kelgan xatni otasi tomonidan sandiqqa solinib, o'g'lidan yashirilganini bilgan singlisi Qaldirg'och xatni topib, do'stlari bilan ziyofatda o'tirgan Alpomishning oldiga boradi. Hammaning oldida akasiga qarab: ... Aka, senga aytadigan arzim bor, Talash bo'пти biyning qizi - zulfakdor. ... Mard yigitning yori talash bo'lami, Er yigitning yorin qalmoq olami? ... Umid tortib senga arza qilibdi, Xat ko'tarib o'n boybachcha kelibdi. Anglamay otama xatni beribdi, Otam xatni bul sandiqqa solibdi. Endi bilib, singling olib kelibdi, Qalmoqlardan checham jabr ko'ribdi. Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin, Narmoda ishini bunda qilmagin... -deb muroajaat qiladi. E'tibor bering, singil bemalol akasiga qarab barchaning oldida erkak kishi ham shunday bo'ladimi degan ma'noda unga nisbatan qo'rs ishlatilgan bo'lsa-da, Barchinning gaplari qaysidir ma'noda da'vat, jangovarlikka undashi ham fikrimizning dalilidir.

Barchinning begona yurtda o'zini va xalqini alplarga xor qildirib qo'ymasdan jasurlik bilan alplarga shart qo'yishi, tom ma'noda haqiqiy o'zbek ayolida uchraydigan vafo, sadoqat, o'tkir bilim va nazokati bilan muammoga yechim topgani ham o'sha zamonlarda ham o'zbek ayolining ilm o'rgangani, qilich tutish, kurash tushish, ov qilish, dushmanga kerakli joyda zarba bera olish, o'zini himoya qilish kabi o'sha paytlarda mavjud sport turlari bilan shug'ullangani, qo'rqmasdan o'z fikrini bayon eta olishi, o'zga yurtda ham o'z nomusi uchun kurashda mardlik ko'rasata olgani, o'rta asrlarda o'zbek ayollari odam hisobida bo'lmagan, ularga qul yoki past tabaqadagi inson deb ayta olmasliklariga, hatto hozirgi Gender tenglikning mavjudligiga guvoh bo'lishimiz, dostonning qahramonlik to'g'risidagi haqiqiy nodir asar ekanligidan dalolatdir. Yana bir holat, Alpomishning kurash tushish shartida Ko'kaldoshdan sal qolsa yengilayozgan paytida:

O'n ming uyli qo'ng'iroqning qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan tomosha qilib, bularning olishganini ko'rib, Hakimbekka qarab bir so'z deb turgan ekan: Qizlar sizni narmoda deb aytadi, Qizlarning aytgani menga botadi. Mardlar olishmaydi siltab otadi, Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi, Bo'sh odamning ishi keyin ketadi. ... Yor so'ziman sherdil bo'lib ketadi, Chirpib l Ko'kaldoshni ko'kka otadi, Ancha yer havoga chiqib ketadi. Xaloyiqlar ko'kka boqib qaradi, Olchichikka bo'lib, shunday aylanib, Alp Ko'kaldosh bul osmondan keladi, Kallasiman kelib yerga uradi, Shunday qilib Ko'kaldosh ham o'ladi...

Alpomishning bo'lajak rafiqasidan eshitgan bu gaplari uni yana oyoqqa turishga, raqibini uloqtirib, jangda g'olib bo'lishiga asosiy omil bo'ldi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Biz ilgari surmoqchi bo'lgan fikr asosida dostonidagi ayollarning tasviri, ularning o'sha davr jamiyatidagi ayollarning hech bir maslada yoki holatda erkaklardan kam bo'lmaganligi, oila va jamiyatda erkaklarni oldinga intiltiruvchi, ruhlantiruvchi, da'vatlovchi kuch ekanligi va bu hozirgi kunda ham mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И.А. "Алпомиш" дostonининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ. – 1999 йил 6 ноябрь.



2. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1998. – 400 б.
3. Berdi baxshi (Berdiyori Pirimqul o'g'li). (2013). Alpomish 2-jild. (B163) – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotining matbaa ijodiy uyi. jild. (B.275) – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotining matbaa ijodiy uyi
4. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: Фан, 2008. – 290 б.
5. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари.: Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2009. – 192 б.
6. Ўраева Д. Яхшиларга ёндашиб // Охунжон Сафаров. Ижодий портрет. – Т.: Мухаррир, 210. – Б.75-78.
7. Шарипова М. Б., Муродова Ш. Ш. ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ» // Научный журнал. – 2020. – №. 9. – С. 32-34.
8. Шарипова М. Б. и др. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ // Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1. – С. 24-25.
9. Vaxshilloevna M. S., Shuhratovna M. S. Description and interpretation of wedding customs in the epic "Alpomish" // Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.
10. Sharipova M. "Alpomish" dostoni-o'zbek xalqi tarixi badiiy ifodasi // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
11. Sharipova M. O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
12. Sharipova M. Qahramonlik episi-milliy madaniyatimizning nodir hazinasi ("Alpomish" dostoni misolida) // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
13. Sharipova M. O'lmas an'ana va marosimlar-ma'naviyatimizning nodir hazinasi // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
14. Ахмедова М. Ш., Шарипова М. Б. ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ // Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. – 2016. – С. 118.
15. Шарипова М. Б., Истамова З. Особенности этического воспитания детей дошкольного возраста // Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 39.
16. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Б. К. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ // Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).

**Shomurodova Salima**

Vobkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

**Boltayeva Nafisa**

Vobkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

## **МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIDA RIVOJLANISH MARKAZLARIDA ТА'ЛИМ TARBIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**

### **ANNOTATSIYA**

Мақтабгача yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

**Kalit so'zlar:** Bolalar, kommunikativ, ko'nikma, markaz, guruh, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi, jihoz, pedagog, qobiliyat, bola.